

## X. XIZMATLAR

2021 yilning yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 8 109,6 mlrd. so'mni, shu jumladan qishloq joylarida 2 609,7 mlrd. so'm yoki umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 32,2 foizi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,3 foiz)ni tashkil qildi.


### Bozor xizmatlarining ishlab chiqarishni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

	Hajmi, mlrd. so'm	2020 yilga nisbatan,% da	Yakunga nisbatan, % da	sh.j: qishloq joylarida mlrd. so'm
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>8 109,6</b>	<b>118,3</b>	<b>100,0</b>	<b>2 609,7</b>
<i>sh. j:</i> xizmat turlari bo'yicha				
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	388,0	114,8	4,8	1,7
Moliya xizmatlari	1 215,3	118,4	15,0	346,5
Transport xizmatlari	1 902,7	115,0	23,5	932,5
<i>sh. j:</i> avtotransport xizmatlari	1 802,6	114,0	22,2	928,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	254,9	109,1	3,1	47,0
Savdo xizmatlari	2 294,3	109,3	28,3	809,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	198,5	127,3	2,5	69,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlari	487,7	164,4	6,0	43,5
Sog'liqni saqlash xizmatlari	149,5	146,8	1,8	25,4
Ijara va prokat xizmatlari	262,7	129,7	3,2	62,2
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	222,9	128,4	2,7	68,5
Shaxsiy xizmatlar	345,3	121,5	4,3	122,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	211,4	143,6	2,6	47,0
Boshqa turdagi xizmatlar	176,4	114,3	2,2	34,3

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo (jami xizmatlarning 28,3 foizi), transport (23,5 foizi) xizmatlariga to'g'ri keldi.

Shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda (164,4 foiz), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (146,8 foiz), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (143,6 foiz) hamda ijara xizmatlarida (129,7 foiz) o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

**2021 yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida savdo xizmatlari (422,4 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (237,9 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (443,4 mlrd. so'mga) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlarda (203,8 mlrd. so'mga) o'sish kuzatildi.

## Hududlar kesimida bozor xizmatlari ishlab chiqarishi


	Hajmi			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so‘m	2020 yilga nisbatan, % da	jamiga nisbatan ulushi, % da	ming so‘m	2020 yilga nisbatan, % da
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>8 109,6</b>	<b>118,3</b>	<b>100,0</b>	<b>2 045,3</b>	<b>116,1</b>
Samarqand sh.	3 500,1	122,8	43,2	6 312,2	121,3
Kattaqo‘rg‘on sh.	188,8	114,3	2,3	2 076,9	113,0
tumanlar:					
Oqdaryo	266,8	115,7	3,3	1 643,0	113,6
Bulung‘ur	219,8	115,9	2,7	1 154,8	113,9
Jomboy	351,0	115,1	4,3	1 984,4	112,5
Ishtixon	305,2	113,9	3,8	1 176,6	111,7
Kattaqo‘rg‘on	322,1	113,5	4,0	1 159,2	111,6
Qo‘shrabot	156,4	112,7	1,9	1 166,2	110,7
Narpay	276,1	114,1	3,4	1 277,2	112,5
Payariq	284,9	113,1	3,5	1 114,1	110,9
Pastdarg‘om	506,8	113,5	6,3	1 402,3	111,4
Paxtachi	171,0	113,3	2,1	1 168,1	111,7
Samarqand	512,4	115,0	6,3	1 989,9	112,8
Nurobod	157,4	113,2	1,9	1 026,3	111,1
Urgut	520,1	116,0	6,4	996,5	113,3
Toyloq	370,7	123,3	4,6	1 797,6	120,4

Hududlar kesimida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur‘ati Toyloq tumani (123,3 foiz) hamda Samarqand shahri (122,8 foiz) hissalariga to‘g‘ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Samarqand, (6 312,2 ming so‘m), Kattaqo‘rg‘on shaharlarida (2 076,9 ming so‘m) va Samarqand (1 989,9 ming so‘m) hamda Jomboy (1 984,4 ming so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ulushlari Samarqand shahri (43,2 foiz), Urgut (6,4 foiz), Samarqand (6,3 foiz), Pastdarg‘om (6,3 foiz) va Toyloq (4,6 foiz) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keldi.

**2021 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**




O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (122,8 %) va Toyloq (123,3 %), Urgut (116,0 %), Bulung'ur (115,9 %), Oqdaryo (115,7 %) hamda Jomboy (115,1 %) tumanlarida qayd etildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari


	Hajmi, ming so'm	2020 yilga nisbatan, % da
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>2 045,3</b>	<b>116,1</b>
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmati	97,9	112,7
moliyaviy xizmatlar	306,5	116,3
transport xizmati	479,9	112,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>		
yashash va ovqatlanish xizmatlari	64,3	107,1
savdo xizmatlari	578,6	107,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	50,1	125,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	123,0	161,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	37,7	144,1
ijara va prokat xizmatlari	66,3	127,4
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	56,2	126,1
boshqa shaxsiy xizmatlar	87,1	119,3
me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	53,3	141,0
boshqa turdagi xizmatlar	44,5	112,2

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar 2021 yil yanvar-iyun oylarida 2 045,3 ming so'mni yoki 2020 yilning shu davriga nisbatan 116,1 foizni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so'm



**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, % da**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmida ta'lim sohasidagi xizmatlar (161,4 foiz), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (144,1 foiz), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (141,0 foiz) da o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.